

Ijtimoiy-huquqiy, ilmiy jurnal

HUQUQ va BURCH

ISSN 2010-5436

№2/2022

2022-
yil

Inson qadrini ulug'lash
va faol mahalla yili

29 ta band
5-yo'nalish

38 ta band
6-yo'nalish


75 ta band
7-yo'nalish

59 ta band
4-yo'nalish

128 ta band
3-yo'nalish

24 ta band
2-yo'nalish

1-yo'nalish
45 ta band



MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi qoshidagi
«Adolat» milliy huquqiy
axborot markazi

Tahrir kengashi:
Ruslanbek Davletov
Muzraf Ikramov
Xudoyor Meliyev
Alisher Karimov
Akbar Toshqulov

Bosh muharrir:
Asliddin Almardonov

Tahrir hay'ati:
Furqat Tojiyev
Sherzod Bahronov
Shohidaxon Yo'ldosheva
Sherzod Rabihev
Shahnoza Soatova
Akram Xalilov
Muzaffar Mamasiddiqov
Miravzal Mirakulov

Mas'ul kotib:
Shavkat Yodgorov

Dizayner:
Azamat Jumaniyazov

Navbatchi muharrir:
Hasan Nishonov

«HUQUQ va BURCH» ijtimoiy-huquqiy, ilmiy jurnalni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasini huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligida 2021 yil 8 aprelda 0081-sonli guvohnoma bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnal 2006 yil mart oyidan chiqa boshlagan. Oyda bir marta chiqadi.

Nashr indeksi: 902. Sotuvda kelishilgan narxda. Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foy-dalanilganda «HUQUQ va BURCH» ijtimoiy-huquqiy, ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart. Tahriri-yat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan.

PR belgisi bilan berilgan maqolalar tijorat maqolalari hisoblanadi.


Tahriri-yat manzili:
Toshkent shahri, Mirobod tumani,
Amir Temur shoh ko'chasi, 19-uy.

Telefonlar:
Ijodiy bo'lim: (71) 277-04-51.
Obuna bo'limi: (71) 233-28-18,
web-site: www.huquqburch.uz;
e-mail: info@huquqburch.uz
 facebook.com/huquqburch.uz
 https://t.me/hb_online

Jurnal 16.03.2022 yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.
Shartli 8 b.t. Buyurtma № 2. Adadi: 1770.
«Premium poligraf biznes» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi. Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
20-mavze 9-uy, 4-xonadon.

MUNDARIJA

№2/(194)/2022



2

YANGI O'ZBEKISTONNING 2022-2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN

Taraqqiyot strategiyasida
huquqning ustuvorligi

5

"MA'MURIY TARTIB-TAOMILLAR TO'G'RISIDA"GI

qonunni takomil ashtirish yollarini

8

INVESTITSIVANI RIVOJLANTIRISHINING huquqiy asoslari

13

PROKURATURA FADUYATI samaradorligini oshirishning aynim mesalalari

KORRUPSIYANING OLDINI OLİSHDA

fuqarolik jamiyati institutlarining
ishtiroki qanday bo'lishi kerak?

16



OLIY TA'LIM TIZIMINING

huquqiy asoslarini
takomillashtirish masalalari

20

SAVOL: ZING-ZING!

"Ey, senda-chi? ... bormi?!" Javob: ...

28

NAZORAT ORGANLARI

mustaqilligini ta'minlashning
ayrim muammolari

32

INQIROZLI KOMMUNIKATSIYA SHAROITIDA

OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi
tanqidlarga munosabat

37

SUVDAGI BIORESURSLARDAN

FOYDALANISH

qonunchiligining nazariy-huquqiy asoslari

40

DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH

tizimini tashkiliy-huquqiy
tartibga solish: xorijiy tajriba

46

YURIDIK TIL LEKSIKASIDAGI

LUG'AVIY BIRLIKLER

va ularda gipero-giponimiya hodisasi

50



55

**FUQAROLIK HUQUQIDA
SHARTNOMA TUSHUNCHASI,**
shartnomaviy sharh
va uning ahamiyati



60

SUDYAGA SAVOLIM BOR...



Yuridik til leksikasidagi lug'aviy birliklar va ularda gipero-giponimiya hodisasi

O'zbek tilshunosligida ham sistem leksikologiyani ilmiy o'rGANISH, leksik-semantik guruuhlar tarkibidagi lug'aviy birliklarni, ularning o'zaro mantiqiy munosabatini aniqlash masalasida tilshunos olimlarimiz, jumladan, Hamid Ne'matov, Ravshanxo'ja Rasulov o'zlarining maktablarini yaratgan deyishimiz mumkin. Ularning qayd etishicha, leksemalarning semantik aloqalari xilma-xildir: sinonimiya, antonimiya, giponimiya, portonimiya, graduonomiya, funksionimiya, iyerarxonimiya va boshqalar.

Yuridik til leksikasi “huquq” arxisemasi (mush-tarak semasi) asosida shakllanadi. U muayyan semantik maydon – tizim sifatida o’zbek tili lug‘at tarkibida ham sifat, ham miqdor jihatidan muhim o’rinlardan birini egallaydi.

Yuridik til milliy adabiy tilimizning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, iste’molda keng qo’llanadi. Yuridik til bir necha turlarga bo‘linadi. Bular: qonun tili yoki davlat yuridik tili, ilmiy yuridik til, sud tili, huquqshunos-muallim tili, publitsist-yurist tili, prokuror tili, advokat tili va boshqalardir. Yuridik tilning mazkur barcha turlari umumiy asosga ega va bir xil toifaga mansub bo’lsa ham baribir bir-biridan mazmunan farq qiladi. Shunga ko‘ra yuridik til tarkibiy qismlaridan biri sanalgan sud tili leksikasi haqida munosabat bildiramiz. Yuridik til leksikasi tarkibidagi lug‘aviy birliklarni quyida-gi guruhlarga ajratdik. Maqsad mazkur leksika ha-qida umumiy tushuncha berish.

1. “Shaxs” tushunchasini ifodalovchi birliklar

Shaxsni anglatuvchi leksemalar mikromaydoni “shaxs” mushtarak semasi asosida shakllanadi. Ushbu leksik-semantik guruh tarkiban shaxs ifodasiga ega leksemalardan – sud jarayonini olib boruvchi, sud jarayoniga tayyorlovchi, jazoga tortilgan – sudlanuvchi shaxslar hamda sud ja-rayonida o‘z xohishiga ko‘ra qatnashuvchilardan tashkil topadi. Demak, sud jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarni quyidagi ichki guruhlarga ajratish mumkin.

Sudlov jarayonida ish yurituvchi shaxslar: sudya, sud raisi, advokat, prokuror, rais o‘rnibosari, bosh prokuror, sud ijrochisi, xalq maslahatchisi, sud kotibi, vakil, kriminalist, ekspert, surishtiruvchi, tergovchi, notarius, konvoy, tarjimon.

Jazolanuvchi, qonunga xilof ish qilgan shaxslar: ayblanuvchi, sudlanuvchi, gumon qilinuvchi (gumondor), jinoyatchi, javobgar.

Sud jarayonida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar: jabrlanuvchi, da’vogar, fuqaroviylar, guvoh, kafillik beruvchi, jamoatchi-oqlovchi, jamoatchi-qoralovchi, merosxo‘r, voris.

Ushbu paradigmatic tizim – ularning birliklari o‘ziga xos paradigmatic qator hosil qilib, yuqorida ta’kidlaganimizdek, “sud nutqida shaxs anglatuvchi leksemalar” mazmuniy guruhiga birlashadi va “sud tizimi” mikromaydoni yoki “huquq mikromaydoni”ni hosil qiladi.

2. “Sud organi” tushunchasini ifodalovchi birliklar

“Sud organlari” semasiga (arxisemasiga) ko‘ra ichki semantik maydonni – semantik guruhn tashkil qiluvchi birliklar bevosita sud bilan bog‘liq tashkilot va muassasalarni anglatadi. Ular quyidagilar: sud (oliy sud, xalq sudi, xo‘jalik sudi, fuqarolik sudi, harbiy sud...), sud hokimiyati, sud arxiv, sudning ikkinchi instansiysi, sayyor sud majlisi, sud rayosati, kengash, sudlov hay’ati, sud tarkibi, kassatsiya hay’ati, advokatura, prokuratura, yuridik maslahatxona, ichki ishlar bo‘limi, jinoyat qidiruv bo‘limi, tribunal.

3. “Jinoyat turi” tushunchasini ifodalovchi birliklar

Sud nutqi leksikasida jinoyat turlarini ifoda etuvchi birliklar eng katta guruhn tashkil qiladi. Ushbu semantik maydon “jinoyat” semasiga ko‘ra yuzaga keladi. Jinoyat ifodalovchi birliklar ma’no jihatidan turlichay bo‘lib, o‘z ichida o‘ndan ortiq leksik-semantik guruhlarga bo‘linadi.

Bular quyidagilar:

- **mansabdorlik jinoyati:** poraxo‘rlik, davlat mulkini talon-toroj qilish, mansabini suisste’mol qilish, tamagirlik, qo‘l ostidagilarga bosim, tayziq o’tkazish va b.;
- **harbiy jinoyat:** dezertirlik, harbiy xizmat chaqiruvidan bo‘yin tovlash, xizmat joyidan qochish, xizmat joyida bezorilik qilish, davlat sirini oshkor qilish;
- **davlatga qarshi jinoyat:** davlat to‘ntarishi harakatlari, davlatni to‘ntarishga yo‘naltilgan harakatlar, davlatga qarshi varaqalar tarqatish, davlat mulkini o‘g‘rilash, diniy fanatizm, ekstrimizm, josuslik, ayg‘oqchilik, terrorchilik harakati, qalbaki pul yashash va b.;
- **o‘zganining mulkiga tajovuz qilish:** o‘g‘rilik, bosqinchilik, talonchilik, yo‘lto’sarlik, tamagirlik, firibgarlik, qalloblik, tovlamachilik, birovning mulkini noqonuniy o‘zlashtirib olish, reketchilik, shantaj qilish, xakerlik va b.;
- **inson hayoti va ruhiyatiga tajovuz qilish:** zo‘rlik, po‘pisa qilish, tuhmat qilish, qo‘rqitish, haqorat qilish, kamsitish, xo‘rlash, sha’nini yerga urish, badanga shikast yetka-

zish, urish (do'pposlash), xunrezlik, suiqasd qilish, odam o'ldirish, qotillik, odamxo'rlik va b.;

• **jinsiy jinoyat:** nomusga tegish, fohisha lik, qo'shmachilik, besoqolbozlik, ayollar savdosi, pornografik filmlar savdosi, jinsiy tama-girlik, ko'p xotinlilik va b.;

• **iqtisodiy jinoyat:** qo'shib yozish, sox-ta tadbirkorlik, soxta hujjat tuzib xo'jalik mulkini talon-toroj qilish, qarzni vaqtida to'lamaslik, soliqni vaqtida to'lamaslik, no-qonuniy yo'l bilan ssuda, kredit olish, yerni noto'g'ri o'lchash, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar va b.;

• **kontrabanda jinoyati:** noqonuniy mol savdosi, narkobiznes;

• **ekologik jinoyat:** brakonyerlik, atrof muhitni ifloslantirish va b.;

• **tartibbuzarlik:** bezorilik, jamoat tartibi-ni buzish, jamoat joyida axloqsizlik qilish;

• **mualliflik huquqining buzilishi:** nolegal faoliyat, litsenziyasiz faoliyat, plagiat va b.;

• **sud-tergov jarayoni bilan bog'liq jinoyat-lar:** aybni majburan bo'yniga oldirmoq, tergov va sudni chalg'itish, yolg'on guvohlik berish, o'zini ruhiy kasallikka solish, chaqiruv qog'ozini olib, sud majlisiga kelmaslik, sud hukmini ijro etishdan bosh tortish va b.

4. "Jinoiy ish"ni ko'rish tushunchasini ifodalovchi birliklar

Ushbu birliklar sudlov jarayonini olib boruvchi shaxslar tomonidan jinoiy ishlarni aniqlash, tekshirish – uni ochish maqsadidagi faol harakatlarni – tergash jarayonini anglatadi. Bular quyidagilar: so'roq, guvohlantirish, surishtiruv, tergov, dastlabki tergov, qo'shimcha tergov, taf-tish, tintuv, restitutsiya (dastlabki huquqiy holatni tiklash), prezumpsiya (faktlarning asli topil-guncha shu faktni to'g'ri deb topish), ko'rsatma berish, eksgumatsiya (murdani qazib olib, eksper-tizadan o'tkazib, yana ko'mish), qidirish (izlash, axtarish).

5. "Sud hukmi" tushunchasini ifodalovchi birliklar

Bunday leksik-semantik guruh "sud hukmi" semasiga ko'ra yuzaga keladi. Ushbu birliklar sud jarayoni natijasida chiqarilgan hukmni, hukmning qandayligini ifodalaydi.

Bular quyidagilar:

1) ayblov hukmi, qamash, ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, mol-mulkini musodara qilish, jarima solish, axloq tuzatish, qo'shimcha jazo choralar, favqulodda jazo chorasi;

2) oqlov hukmi, jinoiy ishni harakatdan to'xtatish, ozod qilish, shartli ozod qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, afv etish, amnostiya, da'veni qanoatlantirmoq, pulni qaytarish, jazodan ozod qilish, oqlash, reabilitatsiya qilish, jarima solish, tovon to'lash, moddiy, ma'naviy zararni qoplash.

6. "Jazo joyi" tushunchasini ifodalovchi birliklar

Ushbu leksik-semantik guruh "jazo joyi" semasiga ko'ra tashkil topadi. Mazkur guruhga oid birliklar sud jarayoni natijasida chiqarilgan hukmga ko'ra sudlanuvchining qayerda bo'lishini anglatadi. Bular quyidagilar: qamoq, qamoq-xona, turma, kamera, koloniya, zona, lager, tergov izolyatori, qattiq tartibli koloniya, gauptvaxta, sur-gun va boshqalar.

7. "Sud ekspertizasi" tushunchasini ifodalovchi birliklar

Bunday leksik-semantik guruhlar "sud eks-pertizasi" semasiga ko'ra yuzaga keladi. Ushbu birliklar sud jarayonida muayyan mutaxassislar qo'yan tashxisni bildiradi. Bular quyidagilar: sud-tibbiy ekspertizasi, sud-buxgalteriya, sud-kimyo, sud-elektroakustik, xatshunoslik (krimi-nalistika), avtotexnika, ballistik (o'q va snaryadlar harakatini aniqlash bo'yicha), dakteiloskopik, dast-labki tergov davridagi, ishni sudda ko'rish davridagi, takroriy, jinoiy vaziyat (jinoyat sodir etilishida-gi vaziyat, ishlatilgan qurol va boshqalarni o'rganish), trasologiya, mehnat layoqatini aniqlash eks-pertizasi.

8. "Yuridik hujjat" tushunchasini

ifodalovchi birliklar

“Yuridik hujjat” semasiga (arxisemasiga) ko‘ra muayyan semantik maydonni hosil qiluvchi birliklar bevosita sud bilan bog‘liq hujjatlarni – rasmiy ish qog‘ozlarini anglatadi.

qonun,
kodeks,
modda,
jinoyat kodeksi,
jinoyat protsessual kodeksi,
ma’muriy huquqbazarlik kodeksi,
prokurorning xususiy protesti,
nizom,
ariza,
da’vo arizasi,
tilxat,
qaror,
bayonnama,
hal qiluv qarori,
ajrim,
amnistiya,
aybnoma,
kassatsion shikoyat (sud hukmidan norozilik),
fabula (jinoyat ishida aybdorga
qo‘yiladigan aybning izchil bayoni),
dispozitsiya (qonunning bosh qismi),
guvohnoma,
ishonchnoma,
protokol,
iltimosnoma,
ma’lumotnoma,
yo‘riqnomा,
vasiyatnoma,
shartnoma,
bayonot,
xabarnoma,
hukmnoma.

Yuridik til leksikasidagi “yuridik hujjatlar” tushunchasini anglatuvchi leksemalar o‘zaro bir nechta gipero-giponimik aloqalarni hosil qildi. Manbalarda “Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko‘pgina ma’nolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy so‘zi, dominantasi sifatida namoyon bo‘luvchi lug‘aviy birlik sifatida; giponim esa, ma’lum jins turlarining nomlarini ifodalovchi ko‘pgina ma’nolarni semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo‘lgan lug‘aviy birlik” sifatida sharhlanadi.

Shunday ekan, qiyoslaymiz, **qaror (giperonim)** – jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror – jinoyat ishini ish yurituvchiga olish haqida qaror – dastlabki tergovni tergovchilar guruhibga topshirish to‘g‘risida qaror – dastlabki tergovning tergovchilar guruhibi ko‘paytirish to‘g‘risida qaror – tergov guruhi tarkibini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror – jinoyat ishini tergovga tegishliligi bo‘yicha yuborish to‘g‘risida qaror – tintuv o‘tkazish haqida qaror – shaxsiy tintuv o‘tkazish haqida qaror – ayblovni o‘zgartirish to‘g‘risida qaror – jabrlanuvchini majburiy keltirish to‘g‘risida qaror – O‘zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori – qamoqqa olish to‘g‘risida qaror – sud-tibbiy ekspertizasi tayinlash haqida qaror va hakazolar (giponimlar).

Yana qiyoslaymiz, **bayonnama (giperonim)** – og‘zaki arizani qabul qilish bayonnomasi – guvohni so‘roq qilish haqida bayonnama – jabrlanuvchini so‘roq qilish haqida bayonnama – yuzlashtirish bayonnomasi – shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatish haqida bayonnama – olib qo‘yish haqidagi bayonnama – tintuv haqida bayonnama – ayblanuvchini so‘roq qilish bayonnomasi (giponimlar).

Demak, murakkab semantik birlik bo‘lgan qaror, bayonnama giperonimlari umumiylig, jins sifatida muayyan giponimlar – xususiylik, turlar –

semantik jihatdan turlicha bo'lgan birliklar orqali sud amaliyotiga xizmat qiladi.

Muayyan semantik maydonga birlashuvchi leksemalar umumiy va xususiy belgilariga ko'ra o'zaro birlashadi yoki ajralib turadi. Masalan, quyida berilgan so'zlar mazmuni, maqsadi va

qo'llanishiga ko'ra o'zaro birlashsa, joriylanishi ko'ra ularning har biri alohidadir. "Ayni mana shu jihat so'zlarning tildagi daxsizligini, xususiyligini ta'minlaydi va ularni muayyan paradigmalarga birlashtirish imkonini beradi". Masalan:

So'zlar	Mazmuni	Maqsadi	Qo'llanishi	Joriylanishi
Sud-tibbiy ekspertizasi	tekshirish	jinoiy ishni ochish	sud	tibbiy muassasa
Sud-buxgalteriya ekspertizasi	tekshirish	jinoiy ishni ochish	sud	buxgalteriya bo'limi
Sud-kimyo ekspertizasi	tekshirish	jinoiy ishni ochish	sud	kimyo laboratoriysi
Sud-elektroakustik ekspertizasi	tekshirish	jinoiy ishni ochish	sud	elektro-akustika laboratoriysi
Xatshunoslik ekspertizasi, kriminalistika	tekshirish	jinoiy ishni ochish	sud	kriminalistika bo'limi

Giponimni giperonimlardan farqlovchi sema – ayni bir jinsga mansub jinoyatlarning amalga oshirilishi ko'ra nomlovchi ma'nolaridir.

Qiyoslaymiz: qotillik – odam o'ldirish; killerlik – yollanma qotil vositasida amalga oshirilgan qotillik; pichoqlash – sanchib kiruvchi o'tkir tig'li ashyo vositasida amalga oshirilgan qotillik; zaharlash – zararli, zaharlovchi moddalar vositasida amalga oshirilgan qotillik; bo'g'ilish – zaharli gaz to'ldirilgan joyda saqlash orqali amalga oshirilgan qotillik; otish – o'qotar qurorda amalga oshirilgan qotillik; bo'g'ish – bo'yinni siqish orqali amalga oshirilgan qotillik; dimiqtirish – suv havzasi va shunga o'xhash joyda amalga oshirilgan qotillik; urish – qo'l yoki qattiq jism vositasida amalga oshirilgan qotillik.

Quyidagilarni iyerarxonimik munosabat sifatida kuzatish mumkin: jinoyat (mikromaydon) – qotillik (giperonim) – killerlik – pichoqlash – zaharlash – otish – bo'g'ish – dimiqtirish – urish (giponim).

"Funksionimiya deganda denotatlarning o'zaro bir xil yoki yaqin vazifa bajarishi asosida hosil bo'lgan so'zlar qatori tushuniladi. Ma'lumki, denotatlarning faoliyatidagi bir xillik yoki o'zaro



o'xhashlik ularning nomlarini ifodalovchi so'zlar orasida leksik-semantik aloqadorlikka asos bo'ladidi.

Yuridik til leksikasida uchraydigan funksionimik qator sifatida quyidagi so'zlar tizimini ko'rsatish mumkin: a) qamoq//qamoqxona, kamera, turma, koloniya, zona; b) oliy sud, viloyat sudi, xo'jalik sudi va b.

Xullas, yuridik til leksikasi sifat (ma'no) jihatidan ancha murakkab, miqdor jihatidan esa "cheksiz" bo'lib, o'zbek tili lug'at tarkibida eng katta qatlamlardan birini hosil qiladi. Ushbu leksika xalq hayotining deyarli barcha yo'nalishlari, sohalari, jarayonlarini qamrab olishi, shuningdek, o'zbek tilshunosligida shu kungacha monografik planda mutlaqo o'rganilmagani bilan ajralib turadi.

Ravshan IKRAMOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti gumanitar fanlar fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

Qodirjon MO'YDINOV,

o'zbek tilshunosligi kafedrasи dotsenti v.b.